

JADID BOBOLAR – MILLAT KO‘ZGUSI

Termiz davlat universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish (Fransuz tili) 1-bosqich talabasi
Boymonova Sevinch San’at qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Turkistonda yuzaga kelgan mustamlakachilik siyosati asosida tashkil topgan jadidchilik, yurt ma’rifati va rivoji uchun tinim bilmay harakat qilgan, millat ravnaqi uchun jonini berishga ham rozi bo‘lgan jadid allomalarimiz siymosi va ular qoldirgan buyuk merosi haqida, shuningdek, hozirgi kunda ma’rifatparvar ota bobolarimizning nomlariga bo‘lgan hurmat va e’tibor va keyingi avlodlarga yetkazish uchun qilinayotgan chora tadbirlar hamda bugungi kunda yoshlarni jadidlarga bo‘lgan munosabati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Jaholat, ma’rifatparvar, strategiya, taraqqiyparvar, panturkizm, ziyolilar, jadidchilik siyosati, qatag’on qilish siyosati.

Abstract

In this article, we will dwell on the image of our enlightened scholars who worked tirelessly for the country's enlightenment and development, who agreed to sacrifice their lives for the country's development, and the great legacy they left behind. Also, the attention and respect shown to the names of our enlightened ancestors, the measures taken to convey their names to the next generation, and the attitude of today's youth to our ancestors will be discussed.

Key words: Ignorance, enlightenment, strategy, progressive, pan-Turkism, intellectuals, Jadidist politics.

Аннотация

В этой статье мы остановимся на образе наших просвещенных ученых, неустанно трудившихся на благо просвещения и развития страны, согласившихся пожертвовать своей жизнью ради развития страны, и на том великом наследии, которое они оставили после себя. Также будут обсуждаться внимание и уважение, оказываемые именам наших просвещенных предков, меры, принимаемые для передачи их имен следующему поколению, отношение современной молодежи к нашим предкам.

Ключевые слова: Невежество, просвещение, стратегия, прогрессив, пантюркизм, интеллектуалы, джадидистская политика.

Jadidlar g‘oyalari yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan hamohangdir” — Shavkat Mirziyoyev

Jadidchilik yoki jadidizm so‘zi (**arabcha:** **جدید** *jadīd* — yangi) — XIX asr oxiri XX asr boshida [Turkiston](#), [Qrim](#), [Tatariston](#), [Kavkaz](#) hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat degan ma’noni beradi. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida [Qrimda](#) vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan [O‘rta Osiyoda](#) keng tarqaldi. Jadidchilik oqimi vakillarining maqsadlari taraqqiyot uchun kurashish, [turkiy tillarni](#) rivojlantirish, adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishdan iborat edi. Keyinchalik jadidchilar [panturkizm](#) ([turkiy xalqlarni](#) birlashtirish g‘oyasiga Rossiya va Angliya imperiyalari, shuningdek, SSSR tomonidan berilgan rasmiy nom) g‘oyalarini targ‘ib qilishgan.

Turkiston jadidlari xalqni qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariat tamoyillarini isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish va milliy muxtoriyatga erishish g‘oyasini ilgari surganlar. Jadidlar milliy birlik, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar bilan jamiyatni yangilash, yuksaltirish yo‘llarini izlaganlar. Dastlab, ular o‘zlarini *taraqqiyparvarlar*, keyinchalik *jadidlar* deb atashgan. Ular Turkistonda amalga oshirilgan cheklov va zulmlar natijasida yetishib chiqdilar. Jadidlar avvalambor, maorif sohasida islohotlar o‘tkazib xalq ommasining savodxonligi, bilimi, umumiy madaniy saviyasini oshirishga bel bog‘ladilar. Natijada ulkan ijtimoiy-siyosiy hodisalardan biri bo‘lgan — “Usuli jadid” maktablari ochildi. XX asr boshlarida yuzaga kelgan 100 ga yaqin shunday maktablarda 100 mingdan ortiq bola tarbiyalandi. Jadidlar maorifning diniy tizimiga ham o‘zgartirishlar kiritishga intildilar. Diniy bilimlarni o‘qitishga katta ahamiyat berilishi bilan birga dunyoviy fanlar: tarix, arifmetika, geografiya, tibbiyotdan berilgan saboqlar ham muhim o‘rin tutadi. Behbudiyning — “Padarkush”, Quدراتilloning — “To’y” Fitratning — “Munozara” kabi dramatik asarlari xalqqa qilingan zulm va isyonkor tashviqot ishlari natijasida yuzaga keldi. Lekin ming afsuski ularning say harakatlari puchga chiqdi. Bu vaqtda sovet rejimi turli siyosiy ishlar (“O‘n sakkizlar guruhi”, “Badriddinovchilik”, “Inog‘omovchilik”, “Qosimovchilik”) tuzib, milliy ziyolilarni ommaviy ravishda qatag‘on qilishga kirishdi. 1929-yil noyabrda Munavvarqori boshchiligidagi 38 kishining qamoqqa olinishi (keyinchalik ularning soni 87 kishiga yetgan)

bilan jadidchilik harakatiga kuchli zarba berildi. Jadidchilik harakatining barcha taniqli namoyandalari (Sadridin Ayniydan tashqari) 30-yillarda sovet mustabid rejimi tomonidan amalga oshirilgan qirg'in natijasida halok bo'ldi. Jadidchilik harakatiga sovet davrida "millatchilik", panturkizm, panislamizm tamg'alari bosilib, qoralandi. Jadid adabiyotini o'qish taqiqlandi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan yo'qolib ketgan jadidlar xotirasi qayta tiklandi, ularning asarlari nashriyotlarda bosib chiqarila boshlandi, Toshkentda muzey ochildi, "Shahidlar xiyoboni" bunyod qilindi. Shuningdek, viloyatlarning turli qismlari va ko'chalarga, ta'lim dargohlariga ular nomi berildi, haykallari bunyod etildi, tarixiy siymolari qayta tiklandi, butun hayotlari davomida to'plagan bilimlari manbasi izlab topildi va kitob holida bosib chiqarila boshlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'qituvchilar kuni munosabati bilan o'tgan tantanada sovetlar qatl etgan jadidchilar Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovni "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlash qarorini ma'lum qildi.

Millatparvar jadidlarimizdan ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon To'ra, G'ulom Zafariylarning nomlarini alohida keltirib o'tish maqsadga muvofiq. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ular xotirasiga bag'ishlab "Jadidlar to'plami tashkil qilindi. Uning ilk sahifalarida muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yozuvchiga bo'lgan fikrlari keltirib o'tilgan. Ushbu jadidlarimiz haqidagi risolalarni to'plashda Dilmurod Quronov, Olim Oltinbek, Hamidulla Boltaboyev, Bahodir Karimov, Ulug'bek Dolimov, Zaynobidin Abdirashidov, Olim Usmonov, Sotimjon Xolboyevlar o'zlarining katta xissalarini qo'shdilar. Yoshlarimizning ham jadidlar xotirasini tiklashga ularning nomlarini abadiy saqlashga qaratilgan tashkiliy islohotlari talaygina. Xususan, Termiz davlat universitetida "Qatag'on qurbonlar xotirasi" muzeyi tashkil qilinishi, badiiy filmlar sur'atga olinishi, sahna ko'rinishlari va teatr namoyishlari tashkil qilinib yosh avlodga bizning kelajagimiz va yurt ravnaqi uchun hissa qo'shgan buyuk bobokalonlarimiz tanitilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Jadidlar" to'plami "Yoshlar nashriyot uyi" Toshkent 2022
2. Islom Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" "Sharq" Toshkent 1998

3. Toxirjon o'g'li, Saydazimov Asroriddin. "JADIDCHILIKNING PAYDO BO'LISHI VA VATAN RAVNAQI UCHUN JADIDLAR SAY-HARAKATI." SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 5.1 (2022): 155-158.

4. Guljahon, Raxmonjonova, and Akramov Qurbonali. "XIX VA XX-ASRLARDA JADIDCHILIK VA MILLIY RUHIYAT NAMOYONDALARI (Abdulhamid Cho'lpon)." "USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE. Vol. 8. No. 1. 2023.

5. Yaxiyoyeva Gulchexra. "JADIDCHILAR -MA'RIFAT DARG'ALARI" Research Focus, vol. 1, no. 1, 2022, pp. 109-115.

6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik>

7. <https://blogs.voanews.com/uzbek/vatan-manzaralari/2020/10/06/ozbekistonda-jadidlarga-etibor-oshdimi/>